

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

“KASB TA'LIMI VA PEDAGOGIKA” KAFEDRASI

“Pedagogik” fanidan

# REFERAT

**Bajardi:**

**533-06 KPT(IIS) guruh talabasi  
Hazratqulov Odil**

**Qabul qildi:**

**katta o'qituvchi Turmatov J.**

**Jizzax- 2010.**

**MAVZU : “Amir Temur va Temuriylar davridagi odob-axloq va tarbiyasi to’g’risidagi”.**

Reja:

**KIRISH**

**ASOSIY QISM**

- 1. Sohibqiron Amir Temur ulug' zot sifatida.**
- 2. Amir Temurning bunyodkorlik ishlari.**
- 3. Amir Temurning odob-axloq, ta'lim - tarbiya to’g’risidagi o’g’itlari.**
- 4. Mavzuga doir dars ishlanmasi.**

**XULOSA**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

## KIRISH.

Ushbu fan yuzasidan inson tarbiyasini shakllantirishda tarbiyani o'rnini ahamiyatiga katta to'xtalmoq zarurdir. Tarbiya inson shaxsi ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Ta'lim esa axloqli, odobli shaxsiga hunar o'rgatish, bilim berishdir. Inson shaxsini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan tarbiya va ta'lim doimo bir-biri bilan uzviy bog'langan jarayonlardir. Har qanday ta'lim, tarbiya bilan uyg'unlashgandagina etuk ma'naviyatga zamin bo'ladi. Su nuqtai nazardan «Pedagogika» fanining asosiy vazifalaridan biri - dunyodagi ma'rifat sohasiga tegishli bilimlarni to'plab, O'zbekiston hududida yashovchi har bir fuqaroni, har bir millat, elat vakillarini va ularning farzandlarini barkamol inson qilib tarbiyalash, mustaqil respublikamizning ongli fidoyisiga aylantirishdir. Chunki jamiyat manfaati yo'lida o'zidagi barcha bilim, qobiliyat va iste'dodni baxshida etishga tayyor turgan etuk insonlar, uddaburon yoshlar, fidoyilar bo'lmasa, O'zbekistonni dunyodagi ilg'oro davlatlar safiga qo'shish qiyin kechadi. Yoshlarimizni tarbiyalash uchun birinchi galda Sharq mutafakkirlarining duru javohiriga teng ma'naviy meroslari dasturiy bo'la oladi. Negaki, o'tmishdagi barcha etuk mutafakkirlar ham ta'lim-tarbiya ishlarining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini chuqur anglab etishgan, adolatli ijtimoiy tuzum o'rnatish borasidagi qarashlarni ta'limotlarni shu muammo bilan bog'lashga intiladilar. «Pedagogika» fani ta'lim-tarbiya ishlari bilan bir qatorda, ko'p jihatdan xalq mutafakkirlari - pedagoglar ishlab chiqqan pedagogik texnikani, o'qituvchining pedagogik muomala mahoratini, nutq texnikasi va madaniyati, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarini, tarbiyalanuvchilar ongiga va hali shakllanib etmagan tasavvurlarga kommunikativ ta'sir ko'rsatish vositalarini pedagog faoliyatida aktyorlik va rejissyorlikning tarkibiy qismlarini, pedagogning o'z psixik, ayniqsa, hissiy holatini kasbiy jihatdan mustaqil tartibga sola olish usullarini va hokazolarni o'rgatuvchi fandır.

Tarbiya - aslida arabcha so'zdan olingan bo'lib, parvarish qilish, ta'lim berish, o'rgatish ma'nosini anglatadi. Inson faoliyatining barcha jabhalarida ham tarbiyachilar yoshlarning axloqi, iymon va vijdoni, bilim va malakasini davr talablari va ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirib, shakllantirishga harakat qilishgan. Bu borada inson shaxsi ma'naviyatini shakllantirishdek olijanob vazifaga butun umrini bag'ishlaganlar odatda o'z zamonasining ilg'or va fidoiy kishilari bo'lishgan.

«Pedagogika» fanini o'rganishdan asosiy maqsad: Birinchidan,

Sharqda ham, G'arbda ham ulug' mutafakkir, hurfikrlikning buyuk dahosi sifatida tan olingan Shayx Umar Hayom aytgan edilarki, samari, aql, ko'zining gavharidir. Demak, inson, uning kamoloti, erkinligi butun ta'lim-tarbiya

tizimining markazida turmog'i lozim. Inson inson uchun oliy qadriyat, oliy maqsad bo'lib qolishi, buning uchun, eng avvalo, yoshlarning ularga ta'lim-tarbiya berayotgan barcha kishilarning, Hazrat Navoiy aytganlaridek, o'zi pok, so'zi pok, dili pok bo'lmog'i lozim.

Ikkinchidan, O'zbekiston jahonga yuz tutdi, jahon ham O'zbekistonga o'z bag'rini ochmoqda. O'zbekistonga, uning xalqiga har kadrning shaxsiy sifatlariga o'zaro baho berib, muvopasabat belgilaydilar. Bunday sharoitda bo'lajak mutaxassis o'z kasbining qay darajada ustasi ekanligi, ayni chog'da O'zbekiston fuqarosi sifatidagi fazilatlariga karab, xorijliklarbizning mamlakatimiz haqidagi tasavvurlarga ega bo'lishadi. Buni har bir yosh avlod nazarda tutishi, shundan kelib chiqib ta'limga munosabatda bo'lishi, o'z-o'zini va milliy o'zligini anglashi muhimdir. Ya'ni, yoshlarda o'z Vatani, xalqi oldidagi yuksak mas'uliyat hissini barqaror qilishning yangi, yuqori darajasiga erishishini rivojlantirishning o'zi ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirishni dolzarb masala sifatida qo'yimoqda.

Uchinchidan, mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishning o'ziga xos va o'ziga mos xususiyati shundan iboratki, bu munosabatlar ijtimoiy yo'naltirilgan mazmunga ega. Ana shu munosabatlarni shakllantiradigan va unda faoliyat ko'rsatadigan kadrlarning ichki dunyosi - «meni» yuksak ideallar, milliy qadriyatlar asosida qaror topishi uchun ta'lim-tarbiya tizimining butun yo'nalishi insonparvarlik g'oyasi bilan sug'orilgan bo'lishi lozim, ya'ni bozor iqtisodiyoti munosabatlari odamda hayvoniy hirslar rivoji uchun emas, aksincha, insoniy fazilatlar to'la ravishda ro'yobga chiqishiga hizmat qilsin. Boshqacha aytganda, iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish, huquqiy demokratik davlat barpo etish, erkin fuqarolik jamiyati qaror toptirishga piravard ijtimoiy maqsad emas, balki har tomonlama kamol topgan, iymon-e'tiqodli, yuksak madaniyatli insonlarni voyaga etkazish, ular o'z qobiliyatlari, istedodlarini erkin ro'yobga chiqarish uchun qullay sharoit sifatida qaralmog'i lozim.

To'rtinchidan, ta'lim va tarbiyaning uzluksiz jarayoni insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlanishning nazariy va ilmiy jihatlari shu sohada mehnat qilayotgan kadrlar ongi va qalbidan zarur darajada o'rin olishi kerak. Ular ta'lim-tarbiya «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ni amalga oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar asosida loib borilishi lozim.

Yuqoridagi maqsadlarni ro'yobga chiqarish va ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo'nalishida shakllantirishda quyidagi **“Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida oila tarbiyasi va odob-axloq to'g'risidagi o'gitlar.”** mavzusi doirasida aniqlangan ma'lumotlar ahamiyati kattadir.

### *Sohibqiron Amir Temur ulug' zot sifatida.*



Ma'lumki, Sohibqiron Amir Temur qalamiga mansub "Temur tuzuklari" asari buyuk bobokalonimiz tarixini o'rganishdagi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asar- siz Sohibqiron va uning davri haqidagi bilimlarimiz sayoz bo'lib qolar edi. Sohibqiron bobomiz shunday degan ekanlar "Yozilgan narsa avlodlar xotirasida qilingan ishdan ham uzoqroq yashaydi". Shu hikmatning isboti o'laroq, "Temur tuzuklari" ne-ne taloto'plarni boshdan kechirib, avlodlarga etib keldi. Ma'lumotlarga ko'ra, bu asarning asl nusxasi turkiy tilda

yozilgan. Ammo bizning davrimizga qadar uning fors tilidagi nusxalari saqlanib qolgan. Ushbu nodir asar o'tgan asrning 60-yillarida sharq tillarining bilimdoni Alixonto'ra Sog'unliy tomonidan o'zbekchaga mahorat bilan o'girilgan. O'sha tahlikali zamonda "Temur tuzuklari"ni xalqqa qaytarish - qilich tig'iga barmoq urishdek xatarli edi. Buning uchun chinakam temuriy jasorat va jur'at lozim edi.

Ajdodlari asli andijonlik to'ralardan bo'lgan Alixonto'ra Sog'unliy Bolosog'un shahrida, Shokirxonto'ra xonadonida 1885 yil 21 martda dunyoga kelgan. "Sog'unliy" taxallusi Bolosog'un shahri nomidan olingan.

Diniy va dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan. O'ttizinchi yillarga kelib, Sharqiy Turkistonga o'tib ketadi. U yerdagi milliy-ozodlik harakatiga boshchilik qiladi. 1944 yil 12 noyabrda Sharqiy Turkiston jumhuriyati e'lon qilinib, Sog'unliy muvaqqat inqilobiy hukumat raisligiga saylanadi. Milliy qo'shin tashabbuskori bo'ldi va unga qo'mondon etib tayinlandi. Ulkan g'alabalari evaziga Alixonto'ra Sog'unliy marshal unvoniga sazovor bo'lgan. Taqdir taqozosi ila Alixonto'ra Sog'unliyning so'hggi 30 yillik umri Toshkentda o'tdi.

Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe", Darvesh Ali Changiyning "Musiqqa risolasi" shuningdek, "Temur tuzuklari" kabi asarlar Sog'unliy hazratlarining tarjimai orqali xalqimizga yetib bordi. U "Devoni Sog'unliy" she'riy to'plami, "Shifo ul-ilal" ("Xastaliklar davosi"), "Asosul islom" ("Islom asoslari"), "Turkiston qayg'usi" asarlarining ham muallifidir. Ayniqsa, islom olamida katta shuhrat qozongan "Tarixi Muhammadiy" asari orqali Sog'unliy hazratlarining nomi

mangulik daftariga yozilganligi shubhasiz. Shu o'rinda ko'pchilikning diliga bir savol keladi: "Nega shu paytga qadar Alixonto'ra haqida hech narsa bilmaganmiz?" Negaki, mustabid tuzum bundan manfaatdor emasdi, millatimiz ulug'larini tan olish - ular uchun mag'lubiyatga teng edi. Buyuk Istiqlol o'z ulug'larimizni tanish va ular hayotini o'rganish imkoniyatini berdi.

O'sha qaltis zamonda "Temur tuzuklari"ni tarjima qilish hazrat Sog'uniyga nima uchun zarur bo'lgan edi? Bu haqda alloma faxr bilan shunday so'zlarni yozganlar: "Ulug' bobomiz sohibqiron Amir Temur hazratlarining "Temur tuzuklari"ni o'z merosxo'rlari - kelajak bo'g'inlarimizga asliday qilib qaytardim. Inshoalloh, bu kitob nashr qilinib, ko'pchilik xalqimizga yetib boradi va ular ongida kimlar naslidan ekanligini bildirib, shonli-sharafli Vatanining haqiqiy tarixidan bir lavha bo'lib xizmat qiladi". Hatto, yuz bergan mushkulotlar ham 80 yoshdan oshgan nuroniy zotni ahdidan qaytara olmaydi. Chunonchi mashaqqatli tarjima yakunlangan kunlarning birida kelgan mehmon qo'lyozmaga qiziqib qolib, o'qishga so'rabdi. Alixonto'ra mehmonning yuzidan o'tolmay qo'lyozmani qo'lga beribdi. Ertasi u kishi kelib, qo'lyozma yo'qolganini, parishonxotirlikda taksida qoldirib ketganini aytibdi. Hammalari Toshkentdagi barcha taksi-motor parklariga borishib, kitobga katta suyunchi belgilashibdi. Ammo qo'lyozma topilmabdi. Shundan keyin Alixonto'ra to'rt oy deganda boshqatdan tarjima qilibdi.

Xullas, 1967 yilda "Guliston" oynomasida "Temur tuzuklari"ning chop etilishi, bulutsiz osmonda chaqin chaqqandek favqulodda voqea bo'ldi. Sho'ro ma'murlari jurnalda "Temur tuzuklari"ning oxirgi qismi chop etilishiga ham toqat qilolmay, uni to'xtatib qo'yadilar.

"Tuzuklar"ning bosilishidan tug'ilgan vahimalar bosilmay turiboq, Tojikistonda chiqadigan "Sadoi Sharq" jurnalida o'zini "olim" sanovchi ikki kimsaning maqolasi bosiladi. Maqolada "Tuzuklar"ga nisbatan g'arazli va o'ta kaltafahmlarcha salbiy munosabat bildirilgan edi. Bu maqola "Guliston" jurnaliga jiddiy ayblar qo'yayotganligi sababli, jurnal xodimlari uni hazrat Sog'uniyga ko'rsatishga majbur bo'ladilar. Alloma maqolani jim tinglaydida, javobiga bir haftadan so'ng kelishlarini tayinlaydi. Aytilgan vaqtda jurnal xodimi kelib, hazrat Sog'uniy yozgan javob xatini oladi. "Oltin kitob himoyaga muhtoj emas, ammo..." deb nomlangan ushbu javob, ta'bir joiz bo'lsa, temuriy zarbaning ilmdagi aksi edi! O'n bir varaqli, keskin va fosh etuvchi javobni bitishda yuzlab noyob ilmiy manbalardan foydalanilgan edi. Javob xati ushbu bayt bilan nihoyalangan:

***Tosh urib sindirsa oltin kosani,***

***Toshning qadri oshmagay, oltin bahosi tushmagay.***

Javob xatining zalvori shunchalik ediki, uni Tojikistonning o'sha paytdagi rahbari bo'lgan Rasulovga yetkazadilar. U kishi Markaziy qo'mita byurosi nomidan "Sadoi Sharq" jurnali va har ikki tanqidchining beadab maqolasi uchun Sharof Rashidovga uzr aytgani xabari keladi.

Alixonto'ra Sog'uniy Sohibqiron Amir Temur nomini nihoyatda ulug' hurmat-ehtirom bilan tilga oladi: "... bu jahon qahramoni, islom olamining ulug' qo'mondoni, butkul turk ulusining faxrlanarlik buyuk sultoni, Qur'ondagi "Allohga va uning payg'ambari Muhammadga va ham o'zlaringdan bo'lgan podshohlarga itoat qilinglar", degan Alloh hukmicha, Turkiston va boshqa bo'ysung'an mamlakatlarga haqiqiy sha'riy va qonuniy podshoh ekanligi shak-shubhasizdir". Alixonto'ra Sog'uniy Amir Temur qo'llanmasini zo'r hurmat va ehtiros bilan tarjima qilar ekan, asarni aytib turib ko'chirtirish jarayonida Temurning hayratomuz fikr va iboralaridan ta'sirlanib, goho sukut saqlar, goho ho'ng-ho'ng yig'lashlari atrofda qilarga ta'sir qilmay qolmasdi.

Boshqa bir safar Alixonto'ra Amir Temurning o'z askarlarini Kaspiy dengizi sohilida safga tizib, u boshidan bu boshiga otliq ertadan kech peshingacha yurib o'tganini hikoya qilar ekan, Sohibqiron sarkardalari to'pida hazrat Sog'uniy ham bo'lgandek, jonli tasavvur uyg'otgan edi.

Bularning barisi Sog'uniyning buyuk Sohibqiron shaxsiga bo'lgan ulkan hurmati mevalari edi.

Alixonto'ra Sog'uniy "Tuzuklar" haqida shunday yozadilar: "Amir Temur yigirma yetti poytaxtli yerni o'ziga bo'yinsundirib, shunchalik ko'p turlik tashvishlar ichida yashab turganiga qaramay, yana bu kitobni o'zi yozib, bizga esdalik qoldirmishdir". Biz esa, hazrat Sog'uniy haqida shunday yozishga burchlimiz: "Alixonto'ra Sog'uniy nuroniy keksaligiga qaramasdan, tahlikali, mustabid tuzum tazyiqlarini pisand etmasdan, o'zlarining sog'lig'i va xavfsizliklarini o'ylamay, bu kitobni tarjima qilib va yana "Tarixi Muhammadiy", "Turkiston qayg'usi" kabi bebaho kitoblarni yozib, bizga esdalik qoldirmishdir".

Istibdod davrida bu "oltin kitob"ni yuzaga chiqarish baayni temuriy jasoratni talab etardi. Bunday jasorat sohibi sifatida Alixonto'ra Sog'uniydan o'zga zotni tasavvur qilib bo'lmaganidek, hazratning buyuk xizmatini O'zbekiston Xalq shoiri Erkin Vohidovdan o'tkazib ta'riflash ham mushkuldir: "Alixonto'ra Sog'uniy hazratlari Amir Temurni xalqimizga tiriltirib berdilar".

#### ***Amir Temurning bunyodkorlik ishlari.***

Samarqand shahrini ro'yi zamin sayqali deb sharaflanishida, uning buyuklar beshigi, millat faxriga aylanishida, bu qadim yurtda ilm-fan, ma'naviyat va me'morchilik ravnaq topishida Amir Temurning mehnatlari, zahmatlari beqiyos.

Biroq, u davlat tepasiga kelgan vaqtda azaldan muhim siyosiy markazlardan biri bo'lgan, bu qadim shahar mo'g'ullar zulmidan xarobaga aylangandi. Samarqandning muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan manzilligini chuqur anglagan Amir Temur uni o'z saltanatining poytaxti qilib tanladi.

Sohibqiron davlatining bosh shahri har tomonlama poytaxt talabiga javob bera olishi kerak edi. Ana shu maqsadda Samarqand uning qadimiy markazi Afrosiyobdan janubroqda butunlay yangicha asosda qurildi. Uning bugungi mahobati, go'zalligiga zamin yaratuvchi qurilish va obodonchilik ishlari olib borildi.

Navqiron Samarqand zamon ruhi bilan hamnafas holda bunyod etila boshlandi. Atrofi mustahkam qal'a devori bilan o'raldi. Unga Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi oltita darvoza o'rnatildi. Shahar arkida Temurning qarorgohi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy barpo qilindi. Ko'ksaroy to'rt qavatli bo'lib, gumbazlari va devorlari zangori koshinlar, naqshinkor va guldor parchinlar bilan qoplangandi. Unda toshdan taxtakursi — Ko'ktosh qo'yilgandi. Bulardan tashqari Arkda davlat devonxonasi, qurol-yarog' ustaxonasi va aslahaxona, zarbxona kabilar barpo etiladi.

Sohibqiron Samarqandda dunyodagi eng yirik me'morchilik timsollaridan biri sanalgan Bibixonim jome' masjidini qurdiradi. Bu bino shu qadar go'zal bo'lib, butun Sharqning tengsiz imoratlaridan biri edi. Uni o'z ko'zi bilan ko'rgan Ispaniya elchisi Klavixo hayajon bilan qo'yidagilarni yozib qoldirgan: «Bu ulug' amir barpo etgan eng yirik inshoot va dunyodagi eng katta masjidlardan biri edi. Uni saltanatning turli viloyatlaridan keltirilgan o'nlab eng yaxshi me'morlar, muhandislar, naqqoshlar va g'isht teruvchilar to'rt yil ichida qurib bitkazishdi. Binoga yetti xil ma'dan qorishmasidan ishlangan, zanglamas va jarangdor, tilla suvi yuritilgan bronza darvoza o'rnatilgandi».

Mazkur inshootning eng katta markaziy zali poydevori qurilishiga besh yuz sangtarosh kesib tayyorlagan og'ir toshlar fillar yordamida yetkazib berilgan. Zalning tepasiga yerdan uch yuz metrcha balandlikda ulkan — «Samarqand moviy gumbazi» tiklangan.

Sohibqiron Samarqandning bir-biridan go'zal va betakror imoratlarini me'morchiligimizning betakror uslublari uyg'unligida qurdirib, o'ziga xos yechimlar topilishida bosh bo'lgan. Demak, turli uslublarni o'rtasida integratsiya yuz bergan. Bir so'z bilan aytganda, bu muhtasham va salobatli binolar orqali tom ma'noda madaniyatlararo ko'priklarni qo'yilgan.

Xorijlik ba'zi olimlarning e'tirof etishicha, Amir Temur tomonidan qurilgan imoratlar oradan necha yuz yillar o'tsa-da, dunyoning eng go'zal inshootlaridan ustunligi, betakrorligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ular keyingi yuz yilliklarda musulmon dunyosida bunyod etilgan yirik qurilishlarda Amir Temur saltanati me'morchiligi maktabidan andaza olingani, unga taqlid etilgani haqida ham yozib qoldirganlar.

Akademik Ibrohim Mo'minov Sohibqironning yaratuvchilik mahoratini yuksak baholab shunday yozgan: «Temur Samarqanddagi ahvolni butunlay o'zgartirib yubordi. U Ko'ksaroy, Bibixonim masjidi, Shohizinda hamda shahar atrofida «Bog'i Chinor», «Bog'i Shamol», «Bog'i Dilkusho», «Bog'i Behisht», «Bog'i Nav» kabi bog' va saroylar yaratdi. Yo'llar qurib, Qo'qon-Zarafshon daryolari, keyinchalik Amudaryo va Sirdaryoga ko'priklarni qurildi, Toshkent atrofiga kanallar, jumladan, Sirdaryodan Ohangaronga ham kanal o'tkazildi. Shahar tipidagi Ohangaron qishlog'i qurildi. Buxoro, Shahrisabz, Farg'ona, Turkistonda karvon-saroylari va boshqa qurilishlar bilan birga, irrigatsiya inshootlari qad ko'tardi. Shahar, qishloqlar, hammomlar,



madrasalar, maqbaralar qurilishi o'sha davr uchun misli ko'rilmagan miqyosda, masshtabda olib borildi».

Bizningcha, bu bunyodkorlik ishlarida Amir Temur davlatchiligining yangicha nafasi ufurib turibdi. Bunyodkorlik ishlari davlatchilikda muhim ahamiyat kasb etib, davlat qudrati bilan uyg'unlikda bir-birini to'ldirgan. Bu ko'rkam qurilishlar tinchlik, taraqqiyot va go'zallik timsollari edi.

Sohibqiron Samarqand atrofiga bir-biridan go'zal Sheroz, Sultoniya, Damashq, Misr, Bag'dod kabi qishloqlar barpo etdi. Bunday nomli shaharlar o'sha davrda dunyoning eng nufuzli kentlaridan edi. Amir Temur esa aynan Samarqand atrofida shunday nomdagi go'zal qishloqlarni barpo etdi va ularga nisbatan Samarqandning tutgan mavqeini ko'rsatib berdi. Uning fikricha, Samarqand kattaligi, go'zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog'i lozim edi.

Bu davrda olib borilgan bunyodkorlik ishlarining deyarli barchasida ilmiy loyiha, me'moriy-badiiy yechim, nur va soya uslublari yuksak darajada ishlab chiqilgan hamda bu qurilishlar aniq rejalar asosida olib borilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, 1397 yil bahorida Amir Temur Samarqandning mashhur bog'laridan biri «Bog'i Shamol»da ajoyib bir saroy qurdirgan. Qurilishni tezroq nihoyasiga yetkazish uchun nafaqat me'morlar, balki askarlar ham jalb etilgan. O'zi esa ish borishini nazorat qilib turish uchun qurilish maydoniga chodir tikdiradi.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Samarqandning janub tomonida «Bog'i Behisht» saroyi bo'lgan. Ushbu saroy handaq bilan ihota qilingan sun'iy tepa ustiga Tabrizning sof oq marmaridan bino etilgan. Bir necha ko'priklar shu boqqa ulangan, bir tomonida hayvonot bog'i qurilgan. Temur bu saroyini Mironshohning qiziga hadya qilgan.

Shuningdek, u Konigil dashtida ilgari mashhur bo'lgan barcha bog'lardan go'zal bir bog' yaratdi. Uning anjirlaru boshqa turli mevali daraxtlari soya tashlab turgan uzun yo'laklaridan o'tib, atrofi baland oq marmar ustunlar bilan o'ralgan bir qasrga borilgan. Amir Temur bog' o'zi o'ylaganidek chiqqanligini ko'rgach, unga «Bog'i Dilkusho», ya'ni «Dilga quvonch baxsh etuvchi bog'» deya nom beradi.

U Kesh yo'li ustidagi haybatli qoya ustiga ham ajoyib bir saroy qurdiradi. Devorlari marmar va oq koshin bilan qoplandi. Bu saroyini zilol buloqlardan suv ichgan yam-yashil bog' o'rab turar edi. Temur bu boqqa «Taxti qoracha» deb nom qo'ydi.

Sohibqiron Amir Temur davrida hammasi bo'lib Samarqand atrofida 12 ta go'zal va betakror bog' barpo etilgan. Bular «Bog'i Naqshi Jahon», «Bog'i Behisht», «Bog'i Shamol», «Bog'i Davlatobod», «Bog'i Buldu», «Bog'i Maydon», «Bog'i Baland», «Bog'i Chinor», «Bog'i Jahon Namo», «Bog'i Nau» bo'lib, ular uchun o'rin tanlashda joyning

bahavoligi, baland-pastligi, suv manbaining oz-ko'pligi va tabiatning boshqa hususiyatlariga alohida e'tibor berilgan.

Ma'lumotlarga qaraganda Amir Temur davrida Samarqand bog'lari ikki xil ko'rinishda qurilgan.

1. Geometrik shaklda tartib berilgan chorbog'lar. Bu ko'rinishdagi bog'lar to'rtburchak shaklida qurilib, maydoni 1x1 km.ni tashkil etgan.

2. Tabiat xushmanzaralari asosida tashkil topgan bog'lar tabiiy holatga barpo qilingan. Bu bog'lar maydoni tartibli bog'larnikiga nisbatan kengroq bo'lgan. Zarafshon daryosi, Darg'om Abbos, Qoraunas kanallari va Obirahmat, Bog'i Shamol, Bog'i Baland ariqlari bog'larni suv bilan ta'minlagan.

Ariqlardan tashqari bog'larning turli qismlaridan o'rin olgan hovuzlar (25x25 : 32x64 m.), favvoralar (4x4 : 5x5 m.), shuningdek, bog' o'rtasida joylashgan saroylarni o'rab turgan suv havzalari (xandaqlar kengligi — 20-25 m.) bog'larga fayz kiritishi bilan birga havosini musaffolashtirgan, miqroiqlim yaratgan.

Sohibqironning Konigil maydonida chodirlardan katta ko'chma shahar qurgani uning me'morchilik san'atining muhim qirralaridan biri hisoblanadi. Bu shaharning o'z uylari, ko'chalari, maydonlari va bozorlari bor edi. Shahar qoq markazidan Sohibqironning chodiri joy olgan.

Klavixo o'z kundaliklarida bir-biridan go'zal chodirlarni ta'riflab, ulardan birining sirti olmaxon mo'ynasi, ichkarisi oq mo'yna bilan bezatilgani, yana boshqa chodirning suvsar mo'ynasi bilan qoplangani, chodir ichkarisidagilar oynadan tashqarini ko'ra olishlari,

tashqaridagilar esa ichkaridagilarni ko'ra olmasligi, maxsus moslama bilan qurilgan eshiklar chodir ichiga yoqimli yelvizak berib turishi, chodirlardan tashqariga chiqmay maxsus matolardan qurilgan yo'laklardan boshqa chodirlarga o'tish mumkinligini ta'kidlagan. Ibn Arabshoh chodirlar va o'rab turgan saroy (matodan ishlangan to'siq)ni shunday ta'riflaydi: «Temur amr qildi, uning surodiqalarini bu yashnagan jahon markazi qilib qo'ydilarki, go'yo u ushbu aylanayotgan falak doirasining (markaziy) nuqtasi bo'ldi. Bu qurilgan chodirlar va o'tovlar ustidagi atrofi o'ralib o'rnatilgan bir ko'tarma edi. Unda katta darvoza bo'lib, u orqali ichidagi mavjud joy va manzillarga keng dahliz bo'ylab kirilardi. Bu dargohning ichkarisiga Temur uchun bir qancha chodir, xayma va o'tovlar tikdilar.

Shular jumlasidan bir chodir bor ediki, uning yuqoriyu quyisiga oltin bilan zarhal berilib, ichiyu sirti nafis patlar bilan bezatilgan edi. Chodirlardan yana biri batamom harirdan tikilib, turli-tuman naqshlar, xilma-xil alvonli bo'yoqlar bilan bezalib to'qilgan, yana boshqa biriga boshidan

oxirigacha yirik marvaridlar qadalganki, ularning har bir donasining qiymatini barcha asrorlar bilimdoni (tangri)dan boshqa hech kim bilmaydi, yana bir tillo bo'laklari ustida turli-tuman javohirlar bilan shunday bezatilganki, u odamzod ko'zini o'ynatib, aqlini lol etardi.

Chodirlardan iborat bu shaharchaning ichki dizayni ham shohona va san'atkorona tuzilgan edi. Chodirdan birining ichki tuzilishini Ibn Arabshoh yana shunday ta'riflaydi: «Balandligi odam ko'kragiga keladigan marvarid durlar bilan bezatilgan tilla sandiq. Bu sandiqda quloqli tilla piyolalar mavjud. Sandiqning bir kichik eshigi bo'lib, ichiga quloqli oltita piyola qo'yilgan. Sandiq tepasida oltita oltin ko'za, oltita oltin piyola, sandiq yonida balandligi bir qarich keladigan oltin piyola, unga ikki qarich zumrad o'rnatilgan. Xontaxta qarshisida eman daraxti shaklida odam oyog'i yo'g'onligida yasalgan oltin daraxt, balandligi odam bo'yi, mevalari sarg'ish, qizil, zangori yoqutlar, zumradlar, firuzalar, nihoyatda san'atkorona qo'yilgan...»

Temuriylar davri san'atining yorqin timsoli bo'lmish ushbu chodir shaharda hatto ko'chma masjid ham o'rnatilgan. U ikki qavat bo'lib, gir aylanasi yog'och yo'laklar va ayvonlardan ibrat. Masjid boshdan oyoq tilla va lojuvard rangli naqshlar bilan bezatilgan bo'lib, uni istalgan paytda yig'ish mumkin edi.

Ibn Arabshohning aytishicha, bu afsonaviy chodir shaharchada hunarmandlar o'zlarining shoh asarlarini namoyish qilganlar. «Bir qamish to'quvchi hunarmand (qamishdan) mukammal qurol-yarog'li bir otliqni yasab chiqardi va uning suratini kamoliga yetkazib, hatto tirmoqlariyu kipriklarini ham yasadi. Unga (otliqqa) zarur bo'lgan qurol-yarog'lardan yoy, qilich va boshqa taalluqli narsalarning hammasini daqiq usulda kamoliga yetkazib yasadi. Ushbu anjomlarning barchasi qamishdan edi».

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlamochimizki, Amir Temurning davlat boshqaruvida bunyodkorlik muhim yo'nalishlardan hisoblangan. Oqsaroy binosi peshtog'iga yozilgan «Qudratimizga shubhangiz bo'lsa, qurdirgan imoratlarimizga boqing» degan xitobda ham mana shu haqiqat mujassamlashgan.

Bu qurilishlar Amir Temurning tafakkuri, kuchi, ilmi, irodasi, tashkilotchiligi, qalbining nozikligi, etikasi, san'ati va eng asosiysi, buyuk hukmdor bo'lgani, bu davrda mukammal davlat boshqaruv asoslari qurilganidan dalolat beradi.

Sohibqiron Amir Temurning Samarqandni zamin sayqaliga aylantirish ezgu niyati istiqloq yillarida tom ma'noda ro'yobga chiqdi. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Samarqandda ulug' bunyodkorlik ishlari olib borildi. Obidalar manbalar asosida asl holida tiklandi, ularga uyg'un zamonaviy inshootlar barpo qilindi, ulkan ko'kalamzorlashtirish va obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Tarixiy adolat tiklanib, Samarqandning 2750 yilligi, Imom Buxoriy, Moturidiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bekning tavallud to'ylari nishonlandi. Shahar

markazida Amir Temur haykali o'rnatildi. Shu munosabat bilan qadim shahar yanada navqironlashdi, Samarqand nafaqat o'tmishida, balki hozir ham yer yuzining abadiy sayqalidir.

### ***Amir Temurning odob-axloq, ta'lim - tarbiya to'g'risidagi o'g'irlari.***

Amir Temur ko'ragon ibn amir Tarag'ay 1336 yilning 9 aprelida o'sha paytlardagi Kesh (Shahrisabz) ga qarashli Xojailg'or (bu qishloq hozir Yakkabog' tumaniga qaraydi) qishlog'ida tavallud topdi. Otasi Amir Tarag'ay o'ziga to'q, badavlat kishi edi. Lekin bo'lajak sohibqiron tavallud topgan paytda Qozonxon (1333-1346) huzurida kichik bir mansabga ega edi. Amirning onasi Tegina Begim Buxorolik "Sadr ash sha'ri'a-shariat" ulug'i, taniqli olim Ubaydullohning qizi bo'lgan. O'sha paytda Kesh va unga tobe' yerlarning bekligi esa Amir Tarag'ayning og'asi Hoji Barlosning qo'lida edi.

"Zubdat at-tavorix"(Shahobiddin Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurashid-laqabi Hofizi Abdu, vafoti 830427 y.) da yozilishicha, shajaraning Amir Sohibqiron tarmog'i Chingizxon ajdodlaridan Tumanoyxon (Tumanxon) farzandlaridan boshlab ajraldi. Jumladan, Qobilxon Jahongir podshoh Chingizxonning III-chi otasi va uning birodari Qachuloy no'yon esa, Amir Sohibqironning sakkizinchi otasidir.

Barloslar qabilasining nomi ham Qachuloy no'yondan boshlangan. Chingizxon o'zining ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonni Turkiston va Movarounnahr mamlakatlariga hukmdor qilib

tayinlaganda, amir Sohibqironning beshinchi otasi Qarachor no'yon uning lashkarboshisi bo'lgan va "amir ul-umaro" ("amirlar amiri") degan unvon olgan.

Keyinchalik Chig'atoy ulusida hokimiyat uchun ichki nizolar kuchayib ketganligi sababli, Qarachor no'yonning farzandlari va qavm-qarindoshlari Kesh viloyatiga kelib, o'rnashib, shu yerda yashab qolganlar, uning avlodlari o'sha viloyatni boshqarganlar, "Zubdat at-tavorix"da Qarachor no'yonning farzandlari ko'p bo'lganligi qayd etilib, ulardan o'n to'qqiz o'g'ilning nomini, shu o'g'illardan tarqalgan keyingi avlodning mashhurroqlarini sanab, ayrimlarining shajarasi to'zi yashab turgan davrgacha davom ettirilgan va ularning qanday mavqeni egallab turganliklari qayd etiladi. Jumladan, Qarachor no'yonning oltinchi o'g'li Injil no'yon bo'lgan va uning farzandlaridan biri Iylangiz no'yon (Ilangiz)dir. Bu no'yonning bir necha farzandlari bo'lib, ulardan biri Sohibqironning bobosi Burkul no'yondir. Uning ikki o'g'li bo'lgan: biri-Bolta, ikkinchisi Tarag'ay no'yon" ya'ni Amir Temurning otasi. Tarag'ay no'yonning to'rt o'g'li va ikki qizi bor edi: o'g'illari - Amir Temur, Suyurg'atmish, Olamshayx, Jo'gi no'yon, qizlari - Qutlug' Turkon og'a, Sherbik og'a, Amir Temur farzandlar orasida to'ng'ichi bo'lgan Amir Temur yoshlikdan ilm ahliga juda katta e'tibor bergan.

Tarixlar, hikoyatlar, qissalar va rivoyatlar tinglamaqqa mayli ko'p adabiyot, san'atni, harbiy ishlarni jon-dildan sevgan, o'ta zukko, oqilu-dono, fahm-farosatli, ayni chog'da dovyurak, jasur bo'lgan ammo, Temurning yoshlik va o'smirlik, yigitlik yillari Chig'atoy ulusi og'ir ijtimoiy-siyosiy bo'ron iskanjasiga tushib qolgan davrlarga to'g'ri keldi. Ular ichidagi notinchlik Qozonxon davriga kelib o'zaro feodal urushlarning avj olib ketishiga olib keldi. Hokimiyat uchun kurash, ayniqsa, xon bilan uning bosh amiri (amir ul-umarosi) Qazag'on o'rtasida. kuchli bo'ldi. O'zaro nifoq va kelishmovchilik urushga aylandi.

Amir Qazag'on ancha kuchli qo'shinga ega edi. Uning o'g'li Abdulloh ham yon-atrofdagi o'lkalarga xujum qilib, o'z mulkini kengaytirishga intilar edi. Jumladan, u 1353 yilda Xorazmni bosib olib, u erda o'z hukmini joriy etadi, 1357 yilga kelib, ikkinchi mo'g'ul amiri Qutlug' Temur Bulday amir Qazag'onni yasoqqa etkazadi. Amir Qazag'on o'rniga taxtga chiqqan amir Abdulloh saroyida fisqi-fujur zo'rayadi. "Natijada mo'g'ul hokimlari faqat hokimiyat, taxt talashibgina qolmay ishratparastlik, maishatparastlik bobida ham yuz tuban keta boshlaydilar.

Mo'g'ul faodallarining o'zaro nizolari va ishratparastliklarini ko'rib, bilib turgan turkiy .xalqlarning nufuzli vakillari jim turolmas edilar, albatta. Ular ham asta-sekin siyosiy kurashlarga aralasha boshladilar. 1358 yilda amir Abdulloh ibn Qazag'onga qarshi kurash boshlagan mo'g'ul amiri Bayon Sulduz yonida turkiy aholinning yetakchilaridan biri amir Hoji Barlos ham bo'lganligi buning dalil-isbotidir.

Kesh (Shahrisabz) viloyatining hokimi Amir Temurning amakisi Hoji Barlos edi. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, Hoji Barlos mo'g'ullarga qarshi kurashish uchun qulay imkoniyatlarni qo'ldan bermagan. Uning Bayon Sulduz bilan birlashib qilgan jangida Abdulloh ibn Qazag'on yengiladi.

Bayon Sulduz va Hoji Barlosning Shahrisabz va Qarshi hokimligini qo'lga kiritishi 1358 yillarga to'g'ri keladi. Ammo bu unchalik uzoqqa bormaydi. Mustaqillik da'vo qilayotgan barloslarni tiyib qo'yish uchun Sharqiy Turkiston xoni To'klug' Temur katta qo'shin bilan bostirib kela boshlaydi. Hoji Barlos bundan qo'rqib, Xurosonga qochadi. Uni Amudaryo bo'yigacha kuzatib qo'yganlar orasida Amir Temur ham bor edi. Ammo u o'ziga sodiq kishilar bilan iziga qaytadi. Temur ibn Tarag'ay birinchi bor ana shu og'ir vaziyatda sinovdan o'tadi.

Hoji Barlos Xurosonga ketgan, yurt egasiz qolgan paytda Amir Temur Shahrisabz hokimiyatini o'z qo'lga oladi. Bu jasurlik va vatanparvarlik, yurtsevarlik, timsoli edi, albatta. Darhaqiqat, oriyatni qo'ldan bermaslik, og'ir paytda mardlik ko'rsatish, har qanday qo'shından tap tortmaslik uning uchun iymon-e'tiqodga aylandi...

Tarixiy manbalarda Amir Temurning Movarounnahr taxtini rasman qo'lga olish yili sifatida 1370 yil qayd etiladi va bu muvaffaqiyat Balxda yuz berganligi aytiladi. Haqiqatda ham amir Husayn ibn Musallabni engib, qo'li baland kelgan Amir Temur jami akobirlar, qo'shin boshliqlari

tomonidan Movarounnahr hukmdori deb tan olingan edi. Demak, sohibqiron o'ttiz to'rt, o'ttiz besh yoshida taxtga chiqishga erishgan.

Fosih Xavofiy o'zining "Mujmal-i Fosihiy" asarida: Amir Temurning 1336-1387 yillardan tortib 1404-1405 yillargacha bo'lgan hayot yo'li asosiy sanalarini keltiradi. Darhaqiqat, buyuk sohibqiron xususan 1370 yildan to 1404 yilga qadar 30 marta qo'shin tortgan, hamma vaqt qo'li baland kelib, 27 dan ortiq mamlakat va elatlarni zabt etgan, Ha, ulug' bobomizning butun umri ot ustida, ur-surlaru kurashlarda kechgan. U umri davomida yaxshilik, ezgulikdan chekinmadi, mardlarni ulug'ladi, xoinlarni, zolimlarni kechirmadi, ulusga zulm qiluvchi hukmdorlarni ayovsiz jazoladi, vatan xoinlaridan nafratlandi.

"Amir Temur o'g'itlari" risolasida haqqoniy ta'kidlanganidek, Amir Temurning tarix oldidagi xizmati benihoya katta. Birinchidan, u mamlakatda kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berib, el-yurtni o'z tug'i ostiga birlashtira oldi. Markazlashgan yirik feodal davlatga asos soldi. Bu bilan ziroatchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratdi, Ikkinchidan, Amir Temur bir qator xalqlar va yurtlarga mustamlakachilar zulmidan ozod bo'lishda yordam berdi. Masalan, o'sha davrning eng qudratli podshohlaridan hisoblangan Boyazid Ildirini (1389-1402) tor-mor

keltirib (1402), Usmonli turklarning istibdodiga tushib qolgan "Bolqon" yarim orolidagi xalqlar va mamlakatlarga ozodlik bag'ishladi. Oltin O'rda xoni To'xtamishni (1376-1395) ikki marta (1391-1395) tor-mor keltirib, O'rusiyaning mo'g'ullar hukmronligidan qutulishini qariyb 300 yilga tezlashtirdi. Uchinchidan, Turkiston zaminini xunarmandchilik, ilm-fan va madaniyati rivojlangan ilg'or mamlakatga aylantirdi. Amir Temurning sa'yharakati bilan obod etilgan shaharlar, kasabalar, qishloqlarni Shahrisabz, Buxoro, Yassi (Turkiston) shaharlarda qad yahshiargan imoratlar, "Temur va Temuriylar davlati", "Temuriy madaniyatn", "Ulug'bek va Samarqand, "Observatoriya maktabi" kabi ulug' tushunchalarni dunyoga kelishlishi va dunyo xalqlari tarixiga oltin harflar bilan yozilishi ham Amir Temur nomi bilan bog'liqdir.

Dastavval shuni aytish kerakki, Amir Temur odob-axloq, iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiyada o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun bobomizning o'zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, o'g'itlar, pand-nasihatlarni, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoya. Bular "Tuzuki Temuriy" ("Temur tuzuklari"), "Malfuzoti Temuriy" ("Temurning aytganlari") va "Voqiqoti Temuriy" ("Temurnng boshidan kechirganlari") nomi bilan jahonga mashhur bo'lgan asarlarni XV asr muarrix Fosih Ahmad Havofiyning "Mujmal-i Fosixiy", Nizomuddin Shomiy (tug'ilgan va vafot etgan yili ma'lum emas) va Sharafiddin Ali Yazdiylarning mashhur "Zafar-nomasi", ibn Arabshoh (1389-1450)ning "Ajoyib ulmaqdur fi xbori Temur" (Amir Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari), Salohiddin ibn Mullo Aloiddin hoja Eshonning (Salohiddin Toshkandiy)

qalamiga mansub "Temurnoma" (Amir Temur ko'ragon jangnomasi, 1908) kabilar shular jumlasidan. Tarix fanlari doktori, professor Ashraf Ahmad Temurning o'zi amal qilgan o'n bir sifatni yuksak baxolaydi.

Birinchi sifat: "Men sifatlarimning eng avvalgi deb beg'arazlikni tushundim. Hammaga

ham bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdim boyni kambag'aldan ustun qo'ymadim."

Ikkinchi sifat: "Men har doim Islomga qat'iy rioya qildim va Alloh Taoloning amri bilan ulug'langan shaxslarga hurmat bilan qaradim."

Uchinchi sifat: "Men kambag'allarga ko'p xayr-ehson qildim. Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to'g'ri hal qilishga butun jahdimni sarf qildim."

To'rtinchi sifat. "Xaloyiqqa rahm qildim, barchaga naf' yetkurdim. Bunda birovga nohaq ozor etkazmadim va mendan yordam so'rab kelganlarni ko'krigidan itarmadim. Qur'ondan parvardigorning Alloxning amriga bo'ysunish va xalqiga shafqat qilish darkor, degan oyatini o'zimga farz bilib, o'qib oldim va umr bo'yi barcha yumushlarimda unga amal qildim."

Beshinchi sifat: "Islomga taalluqli ishlarini men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustun qo'yib keldim. Avval tangri itoatini ado etib bo'lgandan keyingina kundalik ishlarga qo'l urdim."

Oltinchi sifat: "Barcha so'zlarimda doim haqiqatgo'ylikka amal qildim. Bu dunyo va u dunyo xaqidagi etishganlarimdagi haqiqatni yolg'ondan ajrata bildim."

Yettinchi sifat: "Men har kimgaki va'da bersam, unga vafo qildim. Hargiz va'daga xilof ish qilmadim. Men doimo va'dalarimni aniq bajarsam, shundagina odil bo'lishimni va kimsaga jabr etkazmasligimni angladim."

Sakkizinchi sifat: "Doimo o'zimni Allohning erdagi mulkining posboni deb bildim va parvardigorning yoki uning noiblarining iznisiz uni sarf etmadim. Tangrining irodasiz uning bandalarning hech biriga zarar etkazmadim. Oliy martabadagilarga ham, fuqaroga ham birdek xayriya qilishga intildim. Men hech qachon birovning mulkiga ega bo'lishga intilmadim va shuningdek hech qachon ko'proq boylik orttirishga harakat qilmadim. Hech qachon birovga hasad bilan qaramadim. Bu borada Amir Husayn bilan bo'lgan voqea menga ibratli bo'ldi. O'z fuqarolarning mol-mulkiga nisbatan ochko'zligi pirovardida uni halo-katga olib keldi".

To'qqizinchi sifat: "Men har doim tangrimning amrini va uning payg'ambarlarini hadislarini to'la ado etishga intildim. Barcha qilmishlarimda shariat yo'sunlariga butkul amal qildim va nopok ishlardan butun vujudim bilan o'zimni tiydim. Payg'ambar va uning sahobalarini o'zimning yagona va eng yaxshi do'stlarim deb bildim."

O'ninchi sifat: "Men har doim insof bayrog'ini baland yahshiardim va iymon tarqatishni o'z buyukligimning qudratli zamini deb bildim. Men inson bir onadan tug'ilgan deb ishonganman. Shuning uchun mustahkam qudratga tayangan qudrat buyuk bo'ladi".

O'n birinchi sifat: "Men doim saidlarga extirom bilan qarardim, ulamo va shayxlarni e'zozlardim. Bu kishilarni doimo majlislarimga chaqirardim. Ularni din masalasi yuzasidan aytganlarini diqqat bilan tinglab olardim va unga amal qilardim. Shuning uchun menga nisbatan xalqning mehri baland edi va hamma mendan minnatdor edi."

Shunday qilib, sohibqiron Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatleri va purma'no o'gitlarining har bir mazmun va ma'no kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta'siri, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, ularni hadsiz xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

Amir Temur ibratlaridan namunalar

. . . Bizkim - mulki Turon, Amiri Turkistonmiz. Bizkim millatlarning eng qadimiy va eng ulug'i Turkning Bosh bo'g'ini bo'lamiz.

. . . Saltanat ishlarida to'rt narsaga amal kilgin, ya'ni:

1. Kengash.
2. Mashvaratu maslahat.
3. Qat'iy qaror; tadbirkorlik, xushyorlik.
4. Ehtiyotkorlik.

Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatning barcha qilgan ishlari va aytgan gapleri noto'g'ri bo'lgan johil odamga qiyos qilish mumkin; uning aytgan so'zlari va qilgan ishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltiradi. Shunday ekan, saltanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbirkorlik bilan ish yuritgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo'lmaysan. Shuni ham bilishing kerakki, saltanat ishlarining bir qismi sabru toqat bilan bo'lgay, yana bir qismi esa bilib bilmaslikka, ko'rib ko'rmaslikka solish bilan bitur. Xullas, bajarilishi shart bo'lgan tadbirlarning ta'rifidan va zikridan so'ng (shuni ta'kidlash lozimki qat'iylik, sabr, chidamlilik sog'ligu sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilur.

\* \*\*

Davlat ishlariniig to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvrat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur.

\* \* \*

Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azim qat'iy tadbirkor va hushyor bir kishi ming-miiglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir.

Garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo'lsa ham aqli raso va hushyor kishilardan kengashu tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozimdir.



\* \* \*

Bir ishga kirishmay turib, undan qutilib chiqish yo'llarini mo'ljallab qo'y,

\* \* \*

Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin.

\*\*\*

Yerga etkur sabo, kim makr qilmishdir mang'a,

Qildi ersa kimga makrin, qaytadur bir kun ang'a.

\* \* \*

Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim Zolimlar otkazgan ashyoviy na jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin ularni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muxokama qildin va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm o'tkazmadim.

\* \* \*

Shijoatli kishilarni do'st tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi.

\* \* \*

Ulamo bilan suhbatda bo'l va pok niyatli, toza qalbli kishilarga talpin. Bularning himmatlaridan ulush tilanib, muborak nafaslari bilan duo-fotiha berishlarini iltimos qil.

\*\*\*

Millatning dardlariga darmon bo'l...

\*\*\*

## BISMILLAHIR ROHMANIR RAHIM

### 1

Saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgin, ya'ni: 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) qat'iy qaror, tadbirkorlik, hushyorlik; 4) ehtiyotkorlik. Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari noto'g'ri bo'lgan johil odamga qiyos qilish mumkin; uning aytgan so'zlari va qilgan ishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgay. Shunday ekan, saltanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbirkorlik

bilan ish yuritgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo'lmagaysan. Shuni ham bilishing kerakkim, saltanat ishlarining bir qismi sabru toqat bilan bo'lgay, yana bir qismi esa bilib bilmaslikka, ko'rib ko'rmaslikka solish bilan bitur. Xullas, bajarilishi shart bo'lgan tadbirlarning ta'rifidan va zikridan so'ng shuni ta'kidlash lozimki qat'iylik, sabr, chidamlilik, sog'ligu sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilur.

Davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur.

3

Ishbilarmon mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir.

4

G’anim lashkarini yengish qo‘shinning ko‘pligidan, mag‘lub bo‘lish esa sipohning kamligidan bo‘lmaydi. Balki g‘olib bo‘lmokdik Tangrining madadi va bandasining tadbiri bilandir.

5

Garchi ishning qanday yakunlanishi takdir pardasi ortida yashirin bo‘lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengashu tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozimdir.

6

Agar ikki xatarlik yoki bir xatarlik ishni qilishga to‘g‘ri kelgudek bo‘lsa, ikkovidan barobar qutulish chorasi topilmagach, bir xatarini ixtiyor etmoq kerak.

7

Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo‘llarini mo‘l qo‘y. Qilmoqchi bo‘lgan ishlarini qilmasdan qoldirmasinlar. Agar biror ishni qilmaslikka so‘z berar ekanlar, yaqiniga ham yo‘lamasinlar. Xotirdan chiqmasinkim, Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi.

9

Kengash ikki turli bo‘lur: biri — til uchida aytilgani, ikkinchisi — yurakdan chiqqani. Til uchida aytilganini shunchaki eshitardim. Yurakdan aytilgan maslahatni esa qalbim qulog‘iga quyardim va dilimga joylardim.

10

Amirlarim agar yarashdan so‘z ochsalar, buning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko‘rardim, agar urushga moyil bo‘lsalar, uning naf‘ va foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko‘rardim, qaysi biri foydaliroq bo‘lsa, shuni ixtiyor qilardim. Sipohni ikkilantiradigan [turumsiz] kengashni eshitishdan saqlanardim. Qaysi kishi aqlga siqqan bir ishni kuyinib gapirsa, suyib eshitar edim. Kimki oqilona gaplarni erlarcha keskinlik bilan so‘zlasa, unga ham quloq solardim. Har kimdan so‘z olib kengash so‘rar edim. Lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon tomonlari haqida o‘ylab ko‘rgach, to‘g‘ri va savoblirog‘ini tanlab olardim.

11

Biron ishni qilmoqchi bo‘lsam, kengashib olib, keyin Qur’ondan fol ochardim va Qur’on hukmi bilan ish qilur edim.

12

Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin.

13

Xudo bitta, uning sherigi yo'qdir. Shunday bo'lgach, Alloh taoloning muqaddas mulki — yer yuziga egalik qiladigan (kadxudo) kishi ham bitta bo'lishi kerak.

Agar yerda va ko'kda ikki xudo bo'lsa, jahonning ishi buzilur.

15

Yorga yetkur sabo, kim makr qilmishdir mang'a,

Qildi ersa kimga makrin, qaytadur bir kun ang'a.

(Amir Husaynga Amir Temurbek yozgan turkiy bayt)

16

Kimki menga kelib qo'shilsa ulug'lanadi, kimki men bilan kurashmoqchi bo'lsa yiqiladi.

17

Jangda yengish-engilish ishi taqdir pardasi ostida yashirin.

18

Jahonni idora etguvchi qudratli nabiralaringma ma'lum bo'lsinkim, Tangri taolo dargohidan umidim shulki, ko'plab farzanddarim, avlodim saltanat taxtiga o'tirib, mamlakatlarni idora etgay. Shuning uchun saltanat qurish, davlat tutish ishlarini bir necha tuzukka bog'ladim

va saltanat boshqarish haqida qo'llanma (dasturilamal) yozib qoldirdim, toki farzandlarim va avlodimdan bo'lganlarning har biri unga muvofiq ish yuritsin... tole'i baland millatining sharofatini, muhabbat va do'stligim orqali qo'lga kiritgan davlat va saltanatni saqlagaylar. Bu tuzuklardan o'z saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma sifatida foydalangaylar, toki mendan ularga yetadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan omon bo'lgay.

19

Do'stu dushman bilan murosayu madora qildim.

20

Har mamlakatga shayxulislom yubordimki, toki musulmonlarni gunoh ishlardan qaytarib, ularni yaxshi va savob ishlarga undasin.

21

Adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o'zimdanda rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko'nglidan joy oldim.

22

Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim. Zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm o'tkazma.

Menga yomonlik qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishingga ko'p ziyon yetkazganlarni ham iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu qo'rquv bo'lsa, unut bo'lardi.

24

Shijoatli kishilarni do'st tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi.

25

Ulamo bilan suhbatda bo'l va pok niyatli, toza qalbli kishilarga talpin. Bularning himmatlaridan ulush tilanib, muborak nafaslari bilan duo-fotiha berishlarini iltimos qil.

26

Azmu jazm bilan ish tutdim. Biron ishni qilish-ga qasd qilgan bo'lsam, butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib, bitirmagunimcha undan qo'limni tortmadim.

Hech kimga g'azab bilan qattiq muomala qilmadim va hech bir ishda tanglik qilmadim, toki Tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lmayin va ishimni buzib, holimni tang aylamasin deb.

28

Hozirgi damgacha o'tgan sultonlarning qonunlari va turish-turmushlarini donolardan so'rab-surishtirdim. Har qaysilarining yo'l-yo'riqlari, turish-turmushlari, qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va xush axloqlari, ma'qul sifatlaridan namuna olib, unga amal qildim. Davlatlarining tanazzulga uchrashi sabablarini surishtirdim va davlatu saltanat zavoliga sabab bo'luvchi ishlardan saqlandim. Naslni buzuvchi, ocharchilik va vabo kasali keltiruvchi zulm va buzuqchilikdan saqlanishni o'zimga lozim bildim.

29

Raiyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim.

30

Har bir o'lka va shahar aholisining ashrof-ulug'lari va buzurglari bilan oshna tutindim. Ularning mijozlariga, tabiatiga to'g'ri kelgan, o'zlari tilagan odamlarini ularga hokim qilib tayinladim.

31

Hokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolatu insof yuzasidan chora ko'rdim.

Yaxshilarga — yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do‘stlik qilgan bo‘lsa, do‘stligi qadrini unutmadim va unga muruvvat, ehson, izzatu ikrom ko‘rsatdim.

Farzandlar, qarindoshlar, oshna-og‘ayni, qo‘shnilar va men bilan bir vaqtlar do‘stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne‘mat martabasiga erishganimda unutmadim, haqlarini ado etdim.

Do‘st-dushmanligiga qaramay, har joyda sipohiyarlarni hurmat qildim, chunki ular boqiy mato bo‘lgan jonlarini foniy dunyo moli uchun sotadilar. O‘zlarini ma‘raka-maydon,

halokatga otib, jonlarini qurbon qiladilar. Agar g‘anim sipohidan biror odam o‘z valine‘matiga sidqidildan xizmat qilib urush kunlarida menga qarshi qilich ko‘targan bo‘lsa ham, unday odamga nisbatan lutf-marhamatlar ko‘rsatdim, qoshimga panoh istab kelganda, uni qadrlab, haqiqat bilan xizmat qilishiga ishonдим.

Qaysi bir sipohiy tuz haqi va vafodorlikni unutib, xizmat vaqtida o‘z sohibidan yuz o‘girib, mening oldimga kelgan bo‘lsa, unday odamni o‘zimga eng yomon dushman deb bildim.

Davlat agar dinu oyin asosida qurilmas ekan, to‘ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi. Bunday saltanat yalang‘och odamga o‘xsharkim, uni ko‘rgan har kimsa, nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to‘sig‘i yo‘q uyga o‘xshaydi.

Men o‘z saltanatimni dini islom, to‘ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Saltanatni boshqarishda uchragan har qanday voqea va ishni tuzuk asosida bajardim.

Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurishni, musofir yo‘lovchilar uchun yo‘l ustiga rabotlar bino qilishni, daryolar ustiga ko‘priklar qurishni buyurdim.

Musulmonlarga diniy masalalardan ta‘lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim.

Kimki Muhammad dinini qo‘llab-quvvatlasa, sen ham uni qo‘llagil, kimki, Muhammad dinini xor qilsa, sen ham uni xor tutgil.

**“Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida oila tarbiyasi va odob-axloq to’g’risidagi o’gitlar.” mavzusida dars ishlanmasi.**

**Mavzu: Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida oila tarbiyasi va odob-axloq to’g’risidagi o’gitlar.**

***I. Darsning maqsadi:***

1. **Talimiy maqsad: O’quvchilarga “*Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida oila tarbiyasi va odob-axloq to’g’risidagi o’gitlar*”i to’g’risida umumiy tushuncha berish.**
2. **Tarbiyaviy maqsadi: O’quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish. O’zaro bir-birlarining fikrlarini eshitish va to’g’ri munosabatda bo’lish, erkin fikr bildira olishga o’rgatishdan iboratdir.**
3. **Rivojlantiruvchi maqsad: O’quvchilarga “*Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida oila tarbiyasi va odob-axloq to’g’risidagi o’gitlar*” ning manaviyatimizga ta’sirini oshirish yo’llari haqidagi bilimlarni rivojlantirish va tarbiyadagi o’rni va ahamiyatini yuksaltirish.**
4. **Qiziqtiruvchi maqsadi: O’quvchilarning “*Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida oila tarbiyasi va odob-axloq to’g’risidagi o’gitlar*” tutgan o’rni va uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va hayotiy faoliyatdagi ahamiyati haqida ma’lumotlar berib qiziqishlarini oshirish.**

***II. O’quv materiallari:***

**1. Darsliklari:**

- Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti: O’quv qo’llanma T.: O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2004.
- Akromov E.A. Korxonalar moliyaviy xolati tahlili. –T.: Moliya.
- O’zbekiston Respublikasining “Xususiy korxonalar to’g’risida” gi qonuni va qarorlar. T.: “O’zbekiston” , 2004.
- Abdulkarimov I.T. va boshqalar Korxonalar iqtisodiy salohiyati tahlili T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2003.
- Xodiyeva Z “Korxonalar iqtisodi” ma’ruzalar matni 2008.

**2. Dars jihozlari:** “Amir Temur va Temuriylar sulolasi davri” ga oid rasmlari,temuriylar avlodi haqida ma’lumotlar tushurilgan plakatlar bo’yicha tarqatma materiallar.

**3. O’qitish vositalari :** Kadaskop, slaydlar, daska, kompyuter, ekran, flipchard.

**III. Mavzuning loyihalashtirilgan texnologok xaritasi**


Mashg'ulot bosqichlari	Vaqt	Mashg'ulot mazmuni	Talim texnologiya elementlari		
			metod	shakl	vosita
KIRISH	5 daqiqa	O'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarligini aniqlash.Mashg'ulot mavzusi,maqsadi kutilayotgan natijalarini bayon qilish	maruza	Jamoa	
ASOSIY QISM	10 daqiqa	Mashg'ulotning boshida ya'ni "davat" qismida "Aqliy hujum" usulini qo'llab o'quvchilarda boshlang'ich bilimlarni aniqlab olinadi	"Aqliy hujum"	Jamoa	
	30 daqiqa	mashg'ulotlarning "anglash" qismida "Insert" qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'quvchilar tomonidan ularga berilgan tarqatma materiallar kichik guruhlarda "insert" usuli bo'yicha o'qib chiqiladi. Shundan so'ng har bir guruhdan bir o'quvchi chiqib, o'quv materialini qay darajada o'zlashtirganligini o'z fikri bilan bayon qiladi.	"Insert"	Kichik guruhlarda ishlash	Doska, slayd, kadaskop kompyuter,ekran
	15 daqiqa	Mashg'ulotning "fiklash" qismida "Venn diagrammasi" strategiyasidan foydalanib o'tilgan mavzuni mustahkamlash	"Venn diagrammasi" va "Klaster" strategiyasi	Kichik guruhlarda ishlash	flipchard doska, pinvord
YAKUNIY QISM	15 daqiqa	Dars yakunida o'quvchilarning mavzuni qanchalik o'zlashtirganligini bilish va ularni baholash uchun test kartochkalaridan foydalanish	Muhokama	Jamoa	Doska, bo'r

	5 daqiqa	O'qituvchi tomonidan faol ishtirok etgan guruhlar va o'quvchilar rag'batlantiriladi. Uyg'a vazifa: Mavzu yuzasidan ishlab chiqilgan muammoli savollar beriladi. O'quvchilar darsga qatnashish davomatlarini aniqlanadi.			
--	----------	---	--	--	--

### **AMIR TEMUR taxtni egallagach o'z qo'shini bilan yurishi.**

- *Xorazmga besh marotaba yurish qilib, 1388 yilda uni butunlay bo'ysundiradi*
- *Temur o'zining uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1398), yetti yillik (1399-1405) yurishlari davomida Ozarbayjonda jaloyirlar,*
- *Sabzavorda sarbadorlar davlatini,*
- *Uirotda kurdlar davlatini tugatib,*
- *Eron va Xurosonni uz tasarrufiga oladi.*
- *1394-1395 yillarda Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi yurish qilib, uning ko'p sonli qo'shinini mag'lubiyatga uchratadi va Oltin O'rda hududini egallaydi.*
- *Amir Temur 1398 yilda Hindistonga qilgan yurishida Dehli shahrini, 1400 yilda Suriyaga qilgan yurishida Ualab va Bayrut shaharlarini, 1401 yilda Damashq shahrini egallaydi.*
- *1402 yilda usmoniylar imperiyasining sultoni Yildirim Boyazidga qarshi yurishida uni mag'lubiyatga uchratdi*





#### XULOSA.

Yakuniy xulosam o'rnida shuni aytishimki mumkinki Amir Temurni quyidagi

***„Buyuk shaxsning milliy ma'naviyatimizdagi tutgan o'rni.“***

haqida quyidagicha fikr bildirishimiz mumkin ,ya'ni

Amir Temur — buyuk shaxs: kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, talantli me'mor, notiq, ruhshunos, shu bilan birga, el-yurtini sevgan va uni mashhuri jahon qilgan inson. U Buyuk insonning murakkab va tashvishlar bilan to'lib-toshgan hayoti va faoliyatini kichik bir maqolada, hatto juda qisqa va umumiy tarzda bo'lsa-da, bayon qilib bo'lmaydi. Amir Temurning tarixi ko'p jilddik kitoblar yozishga arziydi. Lekin ming afsuski, bizlar — buyuk amirning vatandoshlari, bu ishni hozirgacha eplolmadik. To'g'risi, buni qilish imkoniga ega bo'lmadik, chunki ko'hna tariximiz, ulug' ota-bobolarimiz haqida bizlarni churq ettirmay qo'ygan kommunistik g'oya bunga yo'l bermadi. Amir Temurning o'zi esa tahqirlandi, tuhmatu malomatlarga qoldi. Vaholanki, Angliya, Frantsiya, Germaniya, Amerika Qo'shma Shtatlaridagi

hamkasblarimiz uning hayoti va faoliyatiga bag'ishlab juda ko'p ko'lamdor kitoblar yozib, o'z tillarida chop etdilar. Angliyalik sharqshunos olim Hilda Hukhem, germaniyalik Gans Robert Ryomer, frantsuz Jan Pol Roks, amerikalik Jon Vuds va Beatrisa Mans shular jumlasidan. Xorijlik dramaturg va artistlar o'z teatrlarining sahnalarida Amir Temurning yorqin obrazini yaratdilar. Frantsiyalik haykaltaroshlar uning haykalini oltindan quyib, muzeylarda namoyish qildilar. Biz-chi?..

Tangri taolaga shukrlar bo'lsinki, shu kunlarga kelib ko'p ming yillik boy tariximizni surishtirish va o'rganish imkoniyatiga endi ega bo'lyapmiz. Biz kekxa tarixchilar bu ishni umr yetganicha qilarmiz. Biz ulgurmasak, buni shogirdlarimiz davom ettirishar. Har holda shuni unutmaslik kerakki, bizlar nafaqat Amir Temur to'g'risida, balki ota-bobolarimiz tarixi borasida ham xalqimiz oldida qarzdormiz.

Amir Temur 1336 yilning 9 aprelida o'sha paytlarda Kesh (Shahrisabz)ga qarashli Xo'ja Ilg'or (bu qishloq hozir Yakkabog' tumaniga qaraydi) qishlog'ida tavallud topdi. Otasi Amir Tarag'ay — o'ziga to'q, badavlat kishi edi. Temur tug'ilgan paytda u Qozonxon (1333—1346) huzurida mas'ul bir mansabda turardi. Kesh va unga tobe' yerlarning bekligi esa Amir Tarag'ayning og'asi Hoji barlosning qo'lida edi.

Temurning yoshligi va yigitlik yillari Chig'atoy ulusi og'ir ijtimoiy-siyosiy bo'hron iskanjasiga tushib qolgan bir davrda kechdi. Ulu ichidagi notinchlik Qozonxon davriga kelib o'zaro feodal urushlarning avj olib ketishiga sabab bo'ldi. Hokimiyat uchun kurash ayniqsa xon bilan uning bosh amiri (amir ul-umarosi) Qazag'an o'rtasida kuchli bo'ldi. O'zaro nifoq va kelishmovchilik urushga aylandi. Mamlakat mo'g'ullar istilosi ostida qolgan o'sha og'ir sharoit ikki iste'dodli amirni — amir Temur bilan amir Husaynni bir qadar yaqinlashtirdi. Lekin amir Husayn mamlakatda feodal tarqoqlikka barham berish, raiyatni chet el bosqinchilaridan himoya qilish xususida Amir Temur bilan yakdil bo'la olmadi. Oqibatda yurt ozodligi uchun kurash bevosita Amir Temur zimmasiga tushdi.

Amir Temurning tarix oldidagi xizmati benihoyat katta.

Birinchidan, u mamlakatda kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berib, el-yurtni o'z tug'i ostiga birlashtira oldi, markazlashgan yirik davlatga asos soldi. Bu bilan ziroatchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratib berdi. Bugun «Temur va temuriylar davlati», «temuriylar madaniyati», «Ulug'bek va Samarqand astronomiya maktabi», «Navoiy» va «Bobur» kabi qutlug' so'zlarni nafaqat o'zbeklarning, balki butun dunyo xalqlarining tarixi sahifalarida uchratar ekanmiz, ularning zaminida

Amir Temurning ulkan xizmatlari yotishini nazarda tutishimiz lozim.

Ikkinchidan, Amir Temur, taqdir taqozosi bilan bir qator xalqlar va yurtlarga mustamlakalikdan ozod bo'lishda yordam berdi. Masalan, o'sha davrning eng qudratli podshohlaridan hisoblangan

Boyazid Ildirimni (1389—1402) tor-mor keltirishi natijasida (1402 y.), bir qator Yevropa xalqlari ozodlikka erishdi; Oltin O'rda xoni To'xtamishni (1376—1395) ikki marta (1391 va 1395 y.) tor-mor keltirib, Rossiyaning mo'g'ullar hukmronligidan qutulishini tezlashtirdi.

Uchinchidan, Turkiston zaminini ziroatchilik, hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyat rivojlangan ilg'or mamlakatga aylantirdi. Amir Temurning sa'y-harakati bilan obod etilgan shaharlar, qasabalar, qishloqlarni, Shahrisabz, Samarqand, Buxoro, Yassi (Turkiston) singari shaharlarda qad ko'targan oliy imoratlarni aytmysizmi?! Ularning ba'zilari hozir ham shaharlarimizga ko'rk bo'lib turibdi. Ta'bir joiz bo'lsa, shu yerda yana bir gapni aytmoqchiman.

Amir Temur o'z yurti Turkistonnigina emas, balki qo'shib olingan yurtlarni ham obod qildi..

Amir Temur zamonida yozilgan asarlarni qunt bilan mutolaa qilsangiz, uning ko'p yaxshi

sifatlari (to'g'rilik, muruvvatlilik, el-yurtga mehr-muhabbat va b.) bilan tanishasiz. Uning

saxovatli, bag'ri keng va donishmand odam bo'lganini payqab olasiz. «Temur tuzuklari», Nizomuddin Shomiy (tug'ilgan va vafot qilgan yili ma'lum emas) va Sharofuddin Ali Yazdiyning (1454 yilda vafot etgan) «Zafarnoma»larida, Ibn Arabshohning (1389—1450) «Ajoyib ul-maqdur fi axbori Temur» («Amir Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari») va boshqa asarlarda keltirilgan sohibqironning ibratli pand-nasihatlari va o'gitlaridan ham uning kimligini bilib olsa bo'ladi. Bular el-yurt va fuqaroning tashvishi, raiyatparvarlik, mehr-muruvvat, qo'shnichilik aqidlariga rioya qilish va nihoyat, mardlik va qahramonlik haqidagi hayotiy o'gitlaridir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Karimov I.A. Amir Temur – faxrimiz, g'ururimiz. T., 1998 y.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Shark, 1998 y.
3. I.A.Karimov "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori".T.1998 yil.
4. «Temur tuzuklari» (forschadan ko'chirma). T., 1991 y.
5. Amir Temur o'g'itlari. T., Cho'lpon, 1992 y.
6. Muminov I.M. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. T., Fan, 1993 y.
7. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san'at (maqolalar). T.,1996 y.
8. Axmedov B. Buyuk Temur. T., 1996 y.
9. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. T., Uzbekiston, 1995 y.
10. Jumaboev Y. O'zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. T., O'qituvchi, 1995 y.
11. Tursunov I.,Nishonov U "Pedagogika" T. 1996 yil.
12. Goziev E "Psixologiya"(o'quv qullanma) T.1994 yil.